

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

EKSTREMIZMGA NISBATAN MUROSASIZLIK MUNOSABATINI SHAKLLANTIRISHNING GLOBAL MIQYOSDA NAMOYON BO'LISHI

Uralov Mansur Uralovich

Innovatsion texnologiyalar universiteti o'qituvchi.

e-mail: mansur.uralov@gmail.com **ORCID:** <https://orcid.org/0009-0001-5052-115X>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada ekstremizmga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirishni global miqyosida namoyon bo'lishi ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada bugungi globallashuv jarayonlari insoniyatga katta imkoniyatlar yaratish bilan birga, murakkab xavf va tahdidlarni ham olib kelayotganligi tufayli zamonaviy xavfsizlik arxitekturasini nafaqat harbiy va iqtisodiy tahdidlardan, balki mafkuraviy va ideologik xavf-xatarlardan ham himoyalaniшни taqozo etayotganligi ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: ekstremizm, radikalizm, tahdid, davlat, siyosat, xavfsizlik, murosasizlik, yoshlar, ma'naviyat, strategiya, taraqqiyot, arxitektura.

ГЛОБАЛЬНОЕ ПРОЯВЛЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ НЕТОРМАТИВНОГО ОТНОШЕНИЯ К ЭКСТРЕМИЗМУ

Уралов Мансур Уралович

Университет инновационных технологий, преподаватель.

e-mail: mansur.uralov@gmail.com **ORCID:** <https://orcid.org/0009-0001-5052-115X>

Аннотация.

В данной статье с научной точки зрения анализируется глобальное проявление формирования нетерпимого отношения к экстремизму. Также в статье с научной точки зрения освещается, что современная архитектура безопасности требует защиты не только от военных и экономических угроз, но и от идеологических и идеологических угроз, поскольку современные процессы глобализации не только создают большие возможности для человечества, но и несут с собой сложные риски и угрозы.

Ключевые слова: экстремизм, радикализм, угроза, государство, политика, безопасность, нетерпимость, молодежь, духовность, стратегия, развитие, архитектура.

THE GLOBAL PROVISION OF FORMING A NON-STRINGING ATTITUDE TO EXTREMISM

Uralov Mansur Uralovich

University of Innovative Technologies, Lecturer.

e-mail: mansur.uralov@gmail.com **ORCID:** <https://orcid.org/0009-0001-5052-115X>

Abstract.

This article analyzes the global manifestation of an intolerant attitude toward extremism from a scientific perspective. The article also highlights from a scientific perspective that the modern security architecture requires protection not only from military and economic threats but also from ideological and ideological threats, as modern globalization processes not only create great opportunities for humanity but also carry complex risks and threats.

Keywords: extremism, radicalism, threat, state, politics, security, intolerance, youth, spirituality, strategy, development, architecture.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonlari insoniyatga katta imkoniyatlar bilan birga, murakkab xavf va tahdidlarni ham olib keldi. Siyosatshunos olimlarning fikricha, zamonaviy xavfsizlik arxitekturasini nafaqat harbiy va iqtisodiy tahdidlardan, balki mafkuraviy va ideologik xavf-xatarlardan ham himoyalaniшни taqozo etmoqda. Shulardan biri – ekstremizm hodisasi bo'lib, u xalqaro hamjamiyatning siyosiy kun tartibidagi eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. Ekstremizm bugungi kunda milliy chegaralardan o'tib, transmilliy ko'rinishga ega bo'lgan, xalqaro xavfsizlik tizimini izdan chiqaruvchi omil sifatida e'tirof etilmoqda [1]. Shu boisdan ham unga qarshi kurash faqat bir davlat yoki bir hudud

bilan cheklanmay, butun dunyo miqyosida integratsiyalashgan strategiyalarni talab qilmoqda.

Siyosiy nazariyada ekstremizmga qarshi kurashning eng muhim yo'nalishlaridan biri – yoshlar ongida murosasizlik munosabatini shakllantirish masalasidir. Chunki yoshlar har qanday jamiyatning eng faol, innovatsion, biroq eng ko'p ta'sirchan qatlami hisoblanadi. Neumann ta'kidlaganidek, yoshlar radikalizm va ekstremistik mafkuralar uchun eng asosiy auditoriya bo'lib, ular orasida murosasizlik qarashlarini mustahkamlash barqarorlikni ta'minlashning strategik vositasidir [2]. Bu jarayonni faqat repressiv choralar bilan emas, balki mafkuraviy, ta'limiy va ijtimoiy-siyosiy texnologiyalar yordamida amalga oshirish mumkin [3].

Shu sababli, xalqaro tashkilotlar va davlatlar tajribasida yoshlarni ekstremizmga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, ularning ongida murosasizlik munosabatini shakllantirish borasida turli xil strategiyalar ishlab chiqilgan. Xalqaro miqyosda bu borada uch asosiy darajadagi faoliyat kuzatiladi:

- Xalqaro tashkilotlar (BMT, UNESCO, NATO, Yevropa Ittifoqi) tashabbuslari;
- alohida davlatlarning milliy siyosatlarini (AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Rossiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Singapur);
- mintaqaviy xavfsizlik tizimlari (Yevropa Ittifoqi, SHHT, ASEAN).

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) xalqaro xavfsizlikni ta'minlash va global muammolarni hal etishda yetakchi institut sifatida ekstremizmga qarshi kurashda ham alohida rol o'ynaydi. 2015-yilda BMT Bosh kotibi tashabbusi bilan qabul qilingan "Zo'ravon ekstremizmning oldini olish bo'yicha global harakat rejasini" [4] bu boradagi asosiy hujjatlardan biridir.

Mazkur reja ekstremizmni faqatgina terrorchilik faoliyati sifatida emas, balki ijtimoiy, iqtisodiy va mafkuraviy ildizlarga ega murakkab hodisa sifatida talqin qiladi. Shuning uchun ham yoshlarni radikallashtirishdan himoya qilish quyidagi uch asosiy yo'nalishda amalga oshirilishi belgilandi:

- Ta'lim orqali profilaktika. Yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda inson huquqlari, tolerantlik va madaniyatlararo muloqotga alohida urg'u berildi. Bu borada BMT UNESCO bilan hamkorlikda keng qamrovli dasturlarni amalga oshirmoqda.
- Ijtimoiy inklyuziya. Yoshlarni iqtisodiy va ijtimoiy hayotga keng jalb qilish, ishsizlikni kamaytirish va ularning ijtimoiy o'rnini mustahkamlash radikalizmga moyillikni kamaytiruvchi eng muhim vosita sifatida belgilandi.
- Axborot xavfsizligi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan ekstremistik g'oyalarga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, ijobiy va muqobil kontent yaratish tavsiya qilindi.

BMT tajribasi shuni ko'rsatadiki, ekstremizmga qarshi kurashni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun murosasizlik munosabatini shakllantirish keng qamrovli ta'lim, ijtimoiy-iqtisodiy va axborot siyosati bilan uyg'unlashtirilgan holda olib borilishi kerak. Bu yondashuv O'zbekistonda ham o'z aksini topmoqda. Xususan, 2017-yilda qabul qilingan "Yoshlar siyosati to'g'risida"gi Qonun BMTning mazkur strategiyasiga uyg'un tarzda ishlab chiqilgan [5].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

UNESCO ekstremizmga qarshi kurashda ta'lim va madaniyatni asosiy vosita sifatida ko'radi. 2017-yilda tashkilot tomonidan ishlab chiqilgan "Global fuqarolik ta'limi" konsepsiyasi yoshlarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish, ularni media savodxonlik va bag'rikenglik ruhida tarbiyalashni asosiy strategiya sifatida belgilab berdi.

Ushbu konsepsiya asosida yoshlar ongida murosasizlik munosabatini shakllantirish uchun yo'nalishda olib boriladi:

- Madaniy xilma-xillikni qadrlash. Turli millat, din va madaniyat vakillariga hurmat bilan qarashga o'rgatish.
- Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. Yoshlarning soxta yangiliklar va radikal targ'ibotni farqlash qobiliyatini kuchaytirish.
- Fuqarolik faolligi. Yoshlarni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga rag'batlantirish, ijtimoiy loyihalarda ularning rolini oshirish.

O'zbekiston UNESCO bilan hamkorlikda "Ta'lim orqali bag'rikenglik" dasturini amalga oshirib, yoshlarning madaniyatlararo muloqotini rivojlantirishga qaratilgan qator tashabbuslarni amalga oshirmoqda [6].

Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkiloti (NATO) ekstremizmni global xavfsizlikka qarshi tahdid sifatida talqin qilib, uni xalqaro terrorizm bilan chambarchas bog'liq deb hisoblaydi. NATOning 2022-yilda qabul qilingan Strategik konsepsiyasida zo'ravon ekstremizm "asimmetrik xavf" sifatida qayd etildi. NATO tajribasida ikki asosiy yo'nalish ko'zga tashlanadi:

- Harbiy-xavfsizlik choralari – terrorchi guruhlarining logistik tarmoqlarini yo'q qilish, moliyaviy manbalarini bloklash.
- Yumshoq kuch mexanizmlari – yoshlarni radikallashtirishdan himoya qilish uchun axborot kampaniyalari, ta'lim dasturlari va fuqarolik faolligini rivojlantirish.

Bu yondashuv shuni ko'rsatadiki, G'arb mamlakatlari ekstremizmga qarshi kurashda "qattiq xavfsizlik" va "yumshoq kuch" elementlarini birlashtirishga harakat qilmoqda [7].

Demak, global miqyosda ekstremizmga qarshi kurashning asosiy strategiyalari ta'lim, ijtimoiy inklyuziya, madaniyatlararo muloqot va axborot xavfsizligiga qaratilgan. BMT, UNESCO va NATO tajribasi shuni ko'rsatadiki, yoshlar ongida murosasizlik munosabatini shakllantirish global xavfsizlikning ajralmas qismidir. Bu tajribalar O'zbekiston uchun ham metodologik ahamiyatga ega bo'lib, milliy qadriyatlar va ijtimoiy-siyosiy tizim bilan uyg'unlashtirilgan holda qo'llanilmoqda.

Xalqaro tashkilotlarning umumiy yondashuvlari ekstremizmga qarshi global strategik asoslarni belgilab bersa, AQSh va Yevropa davlatlari bu tamoyillarni milliy siyosiy tizimlarida turlicha modellar orqali tatbiq etmoqda. Bu tajribalar nafaqat o'z mamlakatlari xavfsizligini ta'minlash, balki yoshlarni radikallashtirishdan himoya qilishda murosasizlik

munosabatini shakllantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishga xizmat qilmoqda. O'zbekiston uchun bu tajribalarni qiyosiy o'rganish ikki jihatdan muhim: birinchidan, o'zimizda qo'llanilishi mumkin bo'lgan samarali usullarni ajratib olish; ikkinchidan, bizning milliy qadriyat va ijtimoiy tizimimizga to'g'ri kelmaydigan jihatlarni tanqidiy tahlil qilish.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ekstremizmga qarshi kurashning global miqyosida eng ko'p e'tibor qaratilgan hududlardan biri – bu G'arb davlatlari, xususan, AQSh va Yevropa mamlakatlaridir. Chunki 2001-yil 11-sentabr voqealari butun dunyoda xavfsizlik paradigmasini tubdan o'zgartirib yubordi. AQSh va uning ittifoqchilari nafaqat harbiy va huquqiy choralarni kuchaytirdi, balki yoshlarni radikalizmga qarshi mafkuraviy immunitet bilan ta'minlashga qaratilgan kompleks dasturlarni ishlab chiqdi.

AQSh tajribasida ekstremizmga qarshi kurashda ikki asosiy yo'nalish ajralib turadi:

“Countering Violent Extremism” (Zo'ravon ekstremizmga qarshi kurash) dasturi. 2011-yildan boshlab AQSh Davlat departamenti va Ichki xavfsizlik departamenti tomonidan amalga oshirilayotgan ushbu dastur yoshlarni radikalizmga qarshi himoya qilishga qaratilgan. CVE dasturida asosiy urg'u – jamoat tashkilotlari, diniy muassasalar va ta'lim tizimining hamkorligiga berilgan [8]. Dastur yoshlarni internetdagi radikal targ'ibotlardan himoya qilish, ularni fuqarolik faolligiga jalb etish va ijtimoiy inklyuziyani kuchaytirishni o'z ichiga oladi.

Media savodxonlik va raqamli xavfsizlik. AQSh olimi Mark Sageman o'z tadqiqotlarida yoshlarning radikallashtirishini asosan ijtimoiy tarmoqlar va virtual guruhlar orqali tushuntirib, bu xavfga qarshi kurashda media savodxonlikni asosiy profilaktik vosita sifatida ko'rsatadi [9]. Shu asosda AQShda maktab va universitetlarda media savodxonlik bo'yicha kurslar keng joriy etildi.

Shuningdek, AQSh tajribasi shuni ko'rsatadiki, ekstremizmga qarshi kurashda yumshoq kuch siyosati ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, J. Nay “soft power” konsepsiyasida ta'kidlaganidek, jamiyatni demokratik qadriyatlar, inson huquqlari va fuqarolik erkinliklari asosida rivojlantirish yoshlarni radikalizmga qarshi eng kuchli immunitet bilan ta'minlaydi. AQShda 2011-yildan buyon amal qilayotgan Countering Violent Extremism (CVE) (“Zo'ravon ekstremizmga qarshi kurash”) dasturi yoshlarni radikal mafkuralardan himoya qilishning asosiy konseptual modeli sifatida qaraladi. Ushbu dastur jamiyat institutlari, diniy tashkilotlar va ta'lim muassasalarini hamkorlikka jalb qilgan holda radikallashtirishni erta bosqichda aniqlash va profilaktika qilishni ko'zda tutadi.

O'zbekistonda ham davlat va jamoat institutlari hamkorligida yoshlar bilan ishlash tajribasi mavjud. Masalan, “Yoshlar ishlari agentligi”, “Ma'naviyat va ma'rifat markazi” faoliyati CVE dasturining ayrim jihatlari bilan uyg'unlik kasb etadi. Ammo farqli jihat shundaki, O'zbekistonda bunday ishlar ko'proq davlat tashabbusi bilan amalga oshirilsa, AQShda esa fuqarolik jamiyati institutlarining yetakchi roli kuzatiladi. Bizning fikrimizcha, O'zbekiston sharoitida CVE modelining to'liq tatbiqi qiyin bo'lsa-da, uning ijtimoiy hamkorlik va diniy tashkilotlar bilan ishlash tajribasi milliy tizimga moslashtirilishi mumkin.

Germaniya o'z tajribasida yoshlarni ekstremizmga qarshi immunitetli qilishda fuqarolik ta'limini asosiy siyosiy vosita sifatida qo'llamoqda. 1952-yildan buyon faoliyat yuritayotgan Fuqarolik ta'limi bo'yicha Federal agentlik (Bundeszentrale für politische Bildung, BpB) yoshlar orasida demokratik qadriyatlarni targ'ib qilish, siyosiy savodxonlikni oshirish va radikalizmga qarshi kurashda markaziy institut hisoblanadi [10]. Germaniya tajribasining muhim jihati shundaki, u yoshlar bilan ishlashda faqat davlat muassasalariga tayanmaydi, balki nodavlat tashkilotlar, diniy institutlar va mahalliy hamjamiyatlarni ham faol jalb etadi. Masalan, “EXIT-Germany” dasturi sobiq radikallarning jamiyatga qayta integratsiyasini ta'minlash orqali deradikalizatsiya modelini taklif qilmoqda. Bu tajriba O'zbekiston sharoitida ham yoshlarni ekstremistik guruhlardan ajratib olish va ularni jamiyatga qayta kiritish mexanizmi sifatida ahamiyatli bo'lishi mumkin. Bu borada O'zbekistonda ham fuqarolik ta'limi va ma'naviy-ma'rifiy ishlar muhim o'rin tutadi. Biroq Germaniya modelidan farqli o'laroq, bizda fuqarolik ta'limi ko'proq milliy qadriyatlar va tarixiy meros asosida shakllangan. Shaxsiy ilmiy pozitsiyamizga ko'ra, Germaniya modelining ijobiy jihatlari – ya'ni, yoshlarning siyosiy savodxonligini oshirish va radikallardan qayta ijtimoiylashtirish mexanizmlarini milliy ma'naviyat tizimiga uyg'unlashtirish – O'zbekistonda samarali natija berishi mumkin.

Buyuk Britaniya ekstremizmga qarshi kurashda “Prevent” strategiyasi bilan mashhur. 2003-yildan boshlab amalga oshirilayotgan ushbu dastur yoshlarning radikalizmga moyilligini erta aniqlash va oldini olishga qaratilgan [11]. “Prevent” dasturining o'ziga xosligi shundaki, u maktab o'qituvchilari, tibbiyot xodimlari va mahalliy hukumat organlarini yoshlarning radikallashtirishini aniqlash va profilaktika qilish jarayoniga jalb qiladi. Buyuk Britaniya siyosatshunosi Paul Tomas ta'kidlaganidek, “Prevent” dasturi ba'zi hollarda tanqidga uchragan bo'lsa-da, u yoshlarni ekstremizm xavfidan himoya qilishda “erta ogohlantirish tizimi” sifatida samarali mexanizm bo'lib qolmoqda [12].

Tahlil va natijalar.

O'zbekistonda ta'lim tizimi yoshlarni mafkuraviy tahdidlardan himoya etishda muhim ijtimoiy institut sifatida markaziy o'rin egallaydi. Ammo bizda o'qituvchilarning roli ko'proq ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot bilan chegaralanadi. Buyuk Britaniya modelida esa ular nafaqat ta'lim beruvchi, balki yoshlarning xulq-atvori va qarashlarini monitoring qiluvchi faol subyekt sifatida qatnashadi. Bizningcha, O'zbekistonda bu modelning ijobiy jihati – ta'lim tizimida yoshlarning radikalizmga moyilligini erta aniqlash mexanizmini yaratish – milliy sharoitga moslashtirilishi mumkin.

Fransiya esa o'zining mustamlakachilik tarixidan kelib chiqib, diniy ekstremizm muammosiga ko'proq duch kelmoqda. Shu sababli 2014-yilda “Plan national de prévention de la radicalisation” dasturi qabul qilindi. Bu dastur yoshlarni radikallashtirishdan himoya qilish uchun uch yo'nalishni o'z ichiga oladi:

- Ota-onalar bilan ishlash – oilaning yoshlar tarbiyasidagi rolini kuchaytirish.
- Mahalliy munitsipal organlar va jamoat institutlarini jalb qilish – ijtimoiy integratsiyani mustahkamlash.
- Onlayn xavfsizlik – ijtimoiy tarmoqlarda radikal targ'ibotga qarshi ijobiy kontent yaratish [13].

Fransuz tadqiqotchisi Olivier Roy ta'kidlaganidek, yoshlarning radikallashuvi ko'pincha "diniy fundamentalizm" emas, balki "modernlik va identitet inqirozi" natijasidir. Shu bois Fransiya tajribasida yoshlarning madaniy identitetini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda esa identitet masalasi tarixiy meros va milliy qadriyatlar asosida shakllangan. Shaxsiy pozitsiyamizga ko'ra, Fransiya modelining oilaviy va jamoaviy hamkorlikka asoslangan yondashuvlari bizning mahalla institutimiz va oila an'analari bilan uyg'unlashadi. Shu jihatdan bu tajribani moslashtirish imkoniyatlari mavjud.

AQSh va Yevropa mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, ekstremizmga qarshi kurash faqat repressiv choralar bilan emas, balki yoshlarni fuqarolik ta'limi, media savodxonlik, raqamli xavfsizlik, oilaviy tarbiya va jamiyatga integratsiya qilish orqali ham amalga oshirilishi zarur. Germaniyaning fuqarolik ta'limi modeli, Buyuk Britaniyaning "Prevent" strategiyasi va Fransiyaning radikallashuvni oldini olish dasturlari O'zbekiston uchun ham dolzarb tajribalar hisoblanadi. Bu tajribalar mantiqan shuni ko'rsatadiki, yoshlarni murosasizlik ruhida tarbiyalash jarayoni milliy qadriyatlar bilan bir qatorda global xavfsizlik paradigmasi va xalqaro tajribalar bilan uyg'unlashtirilgan holda olib borilishi lozim.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, AQSh va Yevropa mamlakatlari tajribasining asosiy ustunligi – yoshlarni radikallashuvdan himoya qilishda fuqarolik ta'limi, media savodxonlik va jamoaviy hamkorlikni ustuvor omil sifatida ko'rishi. O'zbekiston tajribasi esa ko'proq milliy qadriyatlar, davlat siyosati va ma'naviy-ma'rifiy tizimga asoslanadi. Bizning ilmiy pozitsiyamiz shundan iboratki, O'zbekistonda samarali modelni shakllantirish uchun Germaniya va Buyuk Britaniya tajribasidagi fuqarolik ta'limi va monitoring mexanizmlarini milliy qadriyatlar hamda mahalla tizimi bilan uyg'unlashtirish lozim.

Agar AQSh va Yevropa mamlakatlari tajribasi asosan fuqarolik ta'limi, media savodxonlik va jamiyatga integratsiyani ustuvor omil sifatida belgilagan bo'lsa, Osiyo mamlakatlarida ekstremizmga qarshi kurashda milliy identitet, ijtimoiy birdamlik va davlat boshqaruvi markaziy o'rinni egallaydi. Bu tajribalar siyosatshunoslikda ko'pincha "davlat markazlashgan xavfsizlik modeli" sifatida talqin qilinadi [14]. Xususan, Xitoy, Janubiy Koreya, Singapur va Malayziya yoshlarni radikalizm ta'siridan himoya qilishda o'ziga xos mexanizmlarni shakllantirgan.

Xitoy Xalq Respublikasi ekstremizmga qarshi kurashda qat'iy davlat siyosatiga tayangan. "Milliy xavfsizlik konsepsiyasi" [15]da ekstremizmga qarshi kurash milliy barqarorlik va taraqqiyotning ajralmas qismi sifatida belgilandi. Xitoy siyosatshunoslari ta'kidlaganidek, mamlakatda yoshlarning mafkuraviy immunitetini kuchaytirish ikki yo'nalishda olib boriladi:

- G'oyaviy-tarbiyaviy ishlar – maktab va universitetlarda "xitoycha sotsializm qadriyatlari"ni o'rgatish orqali yoshlarning identitetini mustahkamlash.
- Axborot makoni nazorati – internet va ijtimoiy tarmoqlarda radikal kontentni cheklash, "musbat energiya" konsepsiyasi asosida ijobiy materiallar yaratish.

Bu yondashuv ko'p hollarda tanqid qilinsa-da, yoshlar orasida radikalizmning keng tarqalishini oldini olishda muhim ahamiyat kasb etmoqda [14]. O'zbekiston bilan qiyoslaganda, Xitoy tajribasining kuchli tomoni – axborot maydoni ustidan qat'iy nazorat va milliy g'oya asosida yoshlarni tarbiyalash. Ammo bizning sharoitimizda bu model to'liq tatbiq qilinishi qiyin, chunki O'zbekistonda internet erkinligi va ochiq muloqot tamoyillari tobora kengaymoqda. Shaxsiy ilmiy pozitsiyamiz shuki, O'zbekiston Xitoy modelidan "musbat kontent yaratish" va "milliy qadriyatlarni mafkuraviy poydevor sifatida mustahkamlash" tajribasini moslashtirishi mumkin.

Janubiy Koreya ekstremizmga qarshi kurashda ta'lim va fuqarolik mas'uliyatini ustuvor deb biladi. Koreya olimi Kim ta'kidlaganidek, mamlakatda yoshlarning ongida murosasizlik qarashlarini shakllantirish uchun uch yo'nalish qo'llanadi:

- Fuqarolik ta'limi – maktab dasturlarida demokratik qadriyatlar va tinchlik madaniyati bo'yicha alohida kurslar mavjud.
- Raqamli xavfsizlik – yoshlarning internetdagi faoliyatini nazorat qilish va media savodxonlikni rivojlantirish.
- Jamiyatga integratsiya – davlat yoshlar bandligini ta'minlash orqali radikalizmga moyillikni kamaytiradi [15].

Koreya tajribasining O'zbekiston uchun ahamiyati shundaki, u milliy qadriyatlar va zamonaviy demokratik ta'limni uyg'unlashtira olgan. O'zbekistonda ham ta'lim tizimi yoshlarni radikallashuvdan himoya qilishda markaziy rol o'ynaydi. Ammo bizda asosiy urg'u ma'naviyat va milliy qadriyatlarga qaratilgan. Koreya modelidan farqli jihat shundaki, bizda raqamli xavfsizlik va media savodxonlik hali yetarli darajada rivojlanmagan. Bizning fikrimizcha, O'zbekiston Koreya tajribasidan "media savodxonlik" va "raqamli xavfsizlik" komponentlarini milliy ta'lim dasturlariga qo'shib, uni mahalla va oilaviy tarbiya bilan uyg'unlashtirsa, samarali natijaga erishish mumkin.

Singaporda esa "diniy uyg'unlik modeli" asosiy strategiya sifatida qabul qilingan. Mamlakatda turli din va millat vakillari yashagani sababli hukumat 2003-yildan boshlab Diniy Reabilitatsiya Guruhi ("Religious Rehabilitation Group" (RRG)) dasturini amalga oshirmoqda. Bu dastur sobiq radikallarni diniy olimlar yordamida jamiyatga qaytarish, yoshlar ongida esa bag'rikenglik ruhini mustahkamlashga qaratilgan [16]. Singapur tajribasida jamoat tashkilotlari va diniy jamoalar muhim rol o'ynaydi. Hukumat ularni ekstremizmga qarshi profilaktika jarayoniga faol jalb qiladi. Bu tajriba O'zbekiston uchun ayniqsa dolzarb, chunki bizda ham mahalla institutining katta salohiyati mavjud. Chunki O'zbekistonda diniy-ma'rifiy faoliyat davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Islom sivilizatsiyasi markazi va boshqa diniy-ma'rifiy muassasalar faoliyat yuritib, jamiyatda ma'naviy-ma'rifiy uyg'unlashni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Malayziya esa "Wasatiyyah" (mo'tadillik) konsepsiyasi orqali yoshlarni diniy ekstremizm ta'siridan himoya qiladi. 2012-yildan boshlab amalga oshirilayotgan ushbu konsepsiya islomiy qadriyatlarni mo'tadillik ruhida talqin qilish, yoshlarni jamiyatda faol rol o'ynashga undash va diniy bag'rikenglikni targ'ib qilishga asoslangan [17]. Malayziya tajribasi shuni ko'rsatadiki, diniy qadriyatlarni to'g'ri talqin qilish yoshlarning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishda muhim

ahamiyatga ega.

Globalashuv va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi tufayli axborot oqimining keskin oshishi yoshlar ongiga ta'sirning yangi shakllarini yaratmoqda. Shuning uchun yoshlarni begona g'oyalardan himoya qilish masalasiga nafaqat mafkuraviy immunitet nuqtai nazaridan, balki kognitiv himoya mexanizmlari orqali ham yondashish kerak. Zero, bugungi axborot makonida tahdidlar ko'pincha ochiq mafkuraviy targ'ibot shaklida emas, balki manipulyativ axborot, soxta yangiliklar, dezinformatsiya va ijtimoiy tarmoqlardagi psixologik manipulyatsiya orqali namoyon bo'ladi.

Kognitiv himoya mexanizmlari insonning axborotni tanqidiy idrok etish, uni tahlil qilish, manbalarni tekshirish, dalillarni taqqoslash va mustaqil xulosalar chiqarish qobiliyatini anglatadi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, rivojlangan tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega odamlar manipulyativ g'oyalar va ekstremistik qarashlar ta'siriga kamroq moyil bo'ladilar. Shuning uchun yoshlar orasida media savodxonligi va axborot madaniyatini rivojlantirish mafkuraviy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismidir.

"Kognitiv immunitet" tushunchasi hozirgi kunda ilmiy hamjamiyat tomonidan keng qo'llanilmoqda. Kognitiv immunitet – bu insonning yolg'on yoki manipulyativ axborotni tanib olish, unga tanqidiy munosabatda bo'lish va turli axborot tahdidlariga qarshi intellektual barqarorlikni saqlab qolish qobiliyatidir. Mantiqiy fikrlash, faktlarni tekshirish, axborot manbalarining ishonchligini baholash va raqamli xavfsizlik ko'nikmalari bu jarayonda muhim rol o'ynaydi [16].

Media savodxonligi yoshlarning axborot hujumlariga chidamliligini ta'minlashda ham alohida rol o'ynaydi. Media savodxonligi yoshlarga axborotni oqilona tanlash, tahlil qilish, baholash va undan foydalanishni o'rgatadi. Natijada ular turli xil buzg'unchi g'oyalar, radikal targ'ibot va yolg'on ma'lumotlarga duchor bo'lish xavfidan himoyalanaadi. Shuning uchun yoshlarni yot g'oyalardan himoya qilishda mafkuraviy immunitet bilan birga kognitiv immunitetni rivojlantirish dolzarb vazifadir. Bu yondashuv yoshlar orasida nafaqat ma'lum g'oyalarga, balki har qanday manipulyativ axborot va mafkuraviy hujumlarga qarshi ongli va mustaqil pozitsiyani shakllantiradi. Bu zamonaviy axborot jamiyatida yoshlarning ma'naviy xavfsizligini ta'minlashning eng samarali usullaridan biridir.

Xulosa.

O'zbekistonda ham diniy-ma'rifiy ta'limda mo'tadillik tamoyili asosiy mezon sifatida qaraladi. Biroq bizda bu jarayon ko'proq "davlat–diniy institutlar hamkorligi" shaklida tashkil etilgan. Malayziya tajribasi shuni ko'rsatadiki, yoshlarni murosasizlik ruhida tarbiyalashda diniy qadriyatlarni zamonaviy ijtimoiy-siyosiy sharoitga mos tarzda talqin qilish muhim. Bizning ilmiy pozitsiyamizga ko'ra, O'zbekiston Malayziya modelidan "mo'tadillik konsepsiyasi"ni yanada tizimli ravishda diniy ta'lim dasturlariga kiritishi mumkin.

Osiyo mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, yoshlarni murosasizlik ruhida tarbiyalashda davlatning markaziy roli, milliy identitetni mustahkamlash va diniy-ma'rifiy qadriyatlarni to'g'ri talqin qilish asosiy omillardan hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, G'arb va MDH tajribasi ko'proq xavfsizlik paradigmasiga tayanadi, Osiyo davlatlari esa davlat markazlashgan modelni qo'llaydi. O'zbekistonning yondashuvi esa o'ziga xos bo'lib, u huquqiy choralarni ma'naviy-ma'rifiy ishlar bilan uyg'unlashtirishga asoslanadi. Mazkur holat, o'z navbatida, yoshlarni radikalizm ta'siridan himoya qilibgina qolmay, balki ularning ongida murosasizlik qarashlarini mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Neumann P. The Trouble with Radicalization // International Affairs. – 2013. – Vol. 89, No. 4. – P. 873–893.
2. Dalgaard-Nielsen A. Violent Radicalization in Europe: What We Know and What We Do Not Know // Studies in Conflict & Terrorism. – 2013. – Vol. 36, No. 12. – P. 979–994.
3. Организация Объединённых Наций. План действий по предотвращению насильственного экстремизма. – Нью-Йорк: Организация Объединённых Наций, 2016. – 52 с.
4. Saidov A. O'zbekiston Respublikasida yoshlar siyosati va xalqaro standartlar uyg'unligi. – Toshkent: Adolat, 2020. – 256 b.
5. Rahmonov X. Ta'lim orqali bag'rikenglik: O'zbekiston va UNESCO hamkorligi tajribasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 198 b.
6. Nye J. Soft Power: The Means to Success in World Politics. – New York: PublicAffairs, 2004. – 192 p.
7. Schmid A. Radicalisation, De-Radicalisation, Counter-Radicalisation: A Conceptual Discussion and Literature Review. – The Hague: ICCT, 2013. – 97 p.
8. Sageman M. Understanding Terror Networks. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 2004.
9. Koehler D. Understanding Deradicalization: Methods, Tools and Programs for Countering Violent Extremism. – London: Routledge, 2016. – 260 p.
10. Thomas P. Responding to the Threat of Violent Extremism: Failing to Prevent. – London: Bloomsbury, 2012.
11. Roy O. Globalized Islam: The Search for a New Ummah. – New York: Columbia University Press, 2004.
12. Лаумулин М. Идеологические и политические аспекты радикализации молодежи в Центральной Азии // Central Asia and the Caucasus. – 2019. – № 1. – С. 32–45.
13. Zhang W. China's New Security Concept and the Fight against Extremism // Journal of Chinese Political Science. – 2018. – Vol. 23, No. 3. – P. 273–291.
14. Roberts M. Digital Authoritarianism: China and the Global Internet // Journal of Democracy. – 2020. – Vol. 31, No. 1. – P. 40–50.
15. Kim S. Civic Education and Youth in South Korea // Asian Journal of Education. – 2017. – Vol. 15, No. 2. – P. 110–128.
16. Tan A. Religious Rehabilitation in Singapore: Past, Present and Future // Studies in Conflict & Terrorism. – 2019. – Vol. 42, No. 5. – P. 435–454.
17. Mohamad M. Wasatiyyah and Moderation in the Islamic Tradition of Malaysia // Intellectual Discourse. – 2015. – Vol. 23, No. 1. – P. 31–55.